



ORCID: 0009-0000-5780-7428

SHARQ VA G‘ARB PEDAGOGIKASIGA KOMPARATIVISTIK YONDASHUV KONTEKSTIDA YOSHLARNI TARBIYALASHNING MEXANIZMLARI

G‘anijonova (Jamolova) Mushtariybegim Bobirjon qizi.
*Andijon davlat Pedagogika Instituti,
Pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.*

Annotatsiya: maqolada Sharq va G‘arb pedagogikasining o‘ziga xos tamoyillari hamda ularning yoshlarni tarbiyalashdagi ahamiyati o‘rganilgan. Sharq pedagogikasida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, jamoaviylik va insonparvarlik tamoyillariga urg‘u berilgan bo‘lsa, G‘arb pedagogikasida individualizm, tanqidiy fikrlash va innovatsion yondashuvlar asosiy o‘rinni egallaydi. Maqolada ushbu ikki pedagogik tizimning o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llanilishi orqali yoshlarni har tomonlama rivojlantirishning samarali usullari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida milliy va xalqaro tajribalarni uyg‘unlashtirish, ma’naviy va ilmiy yondashuvlarni birlashtirishga oid tavsiyalar berilgan. Ushbu maqola zamonaviy pedagogik jarayonni boyitish va yoshlarni ma’naviy hamda intellektual jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy asoslarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: sharq pedagogikasi, G‘arb pedagogikasi, komparativistik yondashuv, yoshlarni tarbiyalash, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, tanqidiy fikrlash, innovatsion texnologiyalar, ta’lim tizimi, milliy va xalqaro tajriba, zamonaviy pedagogika.

МЕХАНИЗМЫ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В КОНТЕКСТЕ СРАВНИТЕЛЬНОГО ПОДХОДА К ВОСТОЧНОЙ И ЗАПАДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ

Аннотация: в статье рассматриваются уникальные принципы восточной и западной педагогики и их значение в воспитании молодежи. В восточной педагогике упор делается на духовно-нравственные ценности, коллективизм и гуманитарные принципы, тогда как в западной педагогике главное место занимают индивидуализм, критическое мышление и новаторские подходы. В статье показаны эффективные методы всестороннего развития молодежи посредством совместного использования этих двух педагогических систем. Также были даны рекомендации относительно гармонизации национального и международного опыта и интеграции духовных и научных подходов в образовательный процесс. В данной статье собраны научные и практические основы,

направленные на обогащение современного педагогического процесса и формирование молодежи как духовно и интеллектуально зрелой личности.

Ключевые слова: восточная педагогика, западная педагогика, сравнительный подход, воспитание молодежи, духовно-нравственные ценности, критическое мышление, инновационные технологии, система образования, отечественный и международный опыт, современная педагогика.

MECHANISMS OF EDUCATING YOUTH IN THE CONTEXT OF A COMPARATIVE APPROACH TO EASTERN AND WESTERN PEDAGOGY

Abstract: the article examines the unique principles of Eastern and Western pedagogy and their importance in educating young people. In Eastern pedagogy, spiritual and moral values, collectivism and humanitarian principles are emphasized, while in Western pedagogy, individualism, critical thinking and innovative approaches occupy the main place. Effective methods of comprehensive development of young people are shown in the article through the combined use of these two pedagogical systems. Recommendations were also made regarding the harmonization of national and international experiences and the integration of spiritual and scientific approaches in the educational process. This article contains scientific and practical foundations aimed at enriching the modern pedagogical process and forming young people as spiritually and intellectually mature individuals.

Key words: Eastern pedagogy, Western pedagogy, comparative approach, educating young people, spiritual and moral values, critical thinking, innovative technologies, educational system, national and international experience, modern pedagogy.

KIRISH. Bugungi globallashuv davri jamiyatning turli sohalarida keskin o‘zgarishlar va rivojlanishlarni taqozo etar ekan, yoshlarni tarbiyalash masalasi eng muhim va dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda yosh avlodning nafaqat intellektual rivojlanishi, balki ularning ma’naviy barkamolligi, axloqiy me’yorlarga sodiqligi va zamonaviy jamiyat talablariga moslashuvi jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Bu jarayonda Sharq va G‘arb pedagogikasining ilg‘or tajribalaridan foydalanish, ularning o‘zaro uyg‘unlikdagi imkoniyatlarini tahlil qilish katta ahamiyatga ega. Sharq pedagogikasi asrlar davomida axloqiy qadriyatlar, jamoaviylik, ma’naviy kamolot va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgan yondashuvlari bilan ajralib turgan bo‘lsa, G‘arb pedagogikasi individualizm, erkin fikrlash va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash tamoyillari bilan o‘zining samaradorligini namoyish etib kelmoqda. Har ikkala pedagogik tizimning o‘ziga xosligi, ular orasidagi farqli jihatlar hamda umumiyliliklarni aniqlash orqali yoshlarni tarbiyalashda samarali mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi kun ta’lim tizimining muhim vazifasidir. Ushbu maqola ana shu masalalarni yoritishga, Sharq va G‘arb pedagogikasining mazmun-mohiyatini o‘rganib, yoshlarni har tomonlama rivojlanirishga yo‘naltirilgan mexanizmlarini tahlil qilishga

qaratilgan. Bunda mazkur yondashuvlarning amaliy ahamiyati va zamonaviy jamiyat sharoitida qo‘llanilish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAXLILI. Johon Dyui Dyui ta’limning nazariy emas, amaliy ahamiyatiga e’tibor qaratadi. U yoshlarni haqiqiy hayotdagi vaziyatlarga tayyorlash, ularning o‘zini rivojlantirishini ta’minlashni ta’limning asosiy maqsadi sifatida ko‘radi. Bu yondashuv G‘arb pedagogikasining zamonaviy usullarini shakllantirishga asos bo‘lgan²⁴.

Jan-Jak Russo bolalarning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratgan. Uning fikricha, tarbiya bolalarning tabiiy erkinligini cheklamasligi, balki ularning ichki qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon berishi kerak. Bu fikr G‘arbda individual yondashuvning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.²⁵

Konfutsiy ta’lim va tarbiyada o‘zaro bog‘liqlik va muvozanatga urg‘u beradi. Bu fikr Sharq pedagogikasida ma’naviyat va ilm-fanning uyg‘unlashuvini ta’minlash zarurligini ifodalaydi.²⁶

Lev Vygotskiy fikricha, insonning rivojlanishi jamiyat bilan o‘zaro munosabat jarayonida amalga oshadi. Bu yondashuv tarbiyada jamoaviylikning ahamiyatini ta’kidlaydi va Sharq pedagogikasining asosiy tamoyillari bilan uyg‘unlashadi²⁷.

Al-Farobiy ta’lim va tarbiyaning yetakchilik fazilatlarini shakllantirishdagi rolini ta’kidlaydi. Bu yondashuv yoshlarni nafaqat intellektual, balki ma’naviy rivojlanishga ham yo‘naltiradi.²⁸

Abu Rayhon Beruniy “Ilmning chegarasi yo‘q, uni egallash insonni mukammal qiladi”.²⁹ Beruniyning bu fikri ilm-fanning insonga beradigan ma’naviy va intellektual ozuqasini ifodalaydi. U ta’limni insonning barkamol bo‘lishidagi asosiy vosita sifatida ko‘radi.

Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat masalasidir."³⁰ Avloniy tarbiyaning jamiyat hayotidagi hal qiluvchi ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ta’lim va tarbiya millatning kelajagini belgilaydi. Bu yondashuv zamonaviy pedagogik jarayonning milliy qadriyatlar bilan bog‘liqligini aks ettiradi.

Sharof Rashidov "Ta’lim – bu xalqni buyuk qiluvchi kuch."³¹ Rashidov ta’lim va tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini ta’kidlab, uning har bir inson hayotida hal qiluvchi rol o‘ynashini nazarda tutgan. Bu fikr zamonaviy o‘zbek pedagogikasida milliy va zamonaviy qadriyatlarni uyg‘unlashtirishning ahamiyatini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODALOGIYASI. Sharq pedagogikasining asosiy tamoyillari asrlar davomida insoniyatning ma’naviy va axloqiy rivojlanishida muhim o‘rin egallab kelgan. Sharq

²⁴ John Dewey, Democracy and Education, The Macmillan Company, 1916.

²⁵ Jean-Jacques Rousseau, Émile, or On Education, Jean Néaulme, Amsterdam, 1762.

²⁶

²⁷ Lev Vygotsky, Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes, Harvard University Press, 1978.

²⁸ Abu Nasr al-Farobiy, Fozil odamlar shahri, "Sharq", Toshkent, 1993.

²⁹ Abu Rayhon Beruniy, Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, Toshkent: "Fan", 1975.

³⁰ Abdulla Avloniy, Turkiy Guliston yoxud axloq, Toshkent: "O‘zbekiston", 1992.

³¹ Sharof Rashidov, Asarlar to‘plami, Toshkent: "Yosh Gvardiya", 1985.

madaniyatida inson qalbining barkamolligi, odob-axloq qoidalariga rioya qilish va jamoaviylik qadriyatlari ta’lim-tarbiyaning poydevori sifatida qaraladi. Bu tamoyillar yosh avlodning nafaqat intellektual rivojlanishi, balki ularning axloqiy kamolotga erishishi uchun ham zarur bo‘lgan asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Masalan, Sharqning buyuk mutafakkiri Konfutsiy o‘z ta’limotida oila va jamiyat ahamiyatini birinchi o‘ringa qo‘yib, insonparvarlik,adolat, hurmat va halollik kabi qadriyatlarni yosh avlodning tarbiyaviy asoslari sifatida belgilagan. Bu tamoyillar jamiyatni mustahkamlash va uning ahloqiy asoslarini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Islom pedagogikasi ham ta’lim-tarbiyada ma’naviyatni birinchi darajali vazifa sifatida belgilaydi. Unda ta’limning maqsadi nafaqat bilim olish, balki insonning ichki dunyosini rivojlantirish va ma’naviy barkamollikka erishishdan iborat. Islomiy ta’limotlarda oila tarbiyasi, ota-onaga hurmat, kattalarga itoat qilish va kichiklarga mehr-muruvvat ko‘rsatish kabi qadriyatlar yosh avlodni tarbiyalashda o‘ziga xos pedagogik yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi. Sharq pedagogikasida ruhiy tarbiya va axloqiy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi yoshlarning jamiyat oldidagi mas’uliyatini his qilishi va ularning axloqiy ideallarga sodiqligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, Sharq ta’limida jamoaviylik, hamkorlik, ijtimoiy birdamlik va insoniylikning ustuvorligi yosh avlodni tarbiyalashda muhim tamoyil sifatida shakllanib kelgan. Sharq pedagogikasining ushbu o‘ziga xosligi bugungi zamonaviy ta’lim tizimida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Insonning ichki dunyosini boyitish, uni axloqiy jihatdan tarbiyalash va jamoaviylik ruhida tarbiyalash tamoyillari Sharq pedagogikasining zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi kerak bo‘lgan asosiy jihatlaridan hisoblanadi. Bu yondashuv yoshlarni nafaqat intellektual jihatdan rivojlantirish, balki ularning axloqiy va ma’naviy yetukligini ta’minlashga ham xizmat qiladi. G‘arb pedagogikasi zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayonida ilmiy yondashuv, individualizm hamda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash tamoyillari bilan ajralib turadi. Ushbu tizim shaxsning erkin rivojlanishi, mustaqil fikrlash qobiliyati va ijodiy salohiyatini oshirishga qaratilganligi bilan mashhur. Jan-Jak Russo va Johon Dyui kabi mashhur pedagoglarning nazariyalarida insonning tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va uni erkin tafakkur asosida rivojlantirish g‘oyalari asosiy o‘rinni egallaydi. Ularning qarashlariga ko‘ra, yosh avlodning tarbiyasi nafaqat bilim olish jarayoniga, balki mustaqil fikrlash, o‘z nuqtai nazarini ifoda etish va muammolarni yechish qobiliyatlarini shakllantirishga ham qaratilgan bo‘lishi kerak.

Bugungi kunda G‘arb mamlakatlarda ta’lim jarayoni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilmoqda. Xususan, STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) va STEAM (san’atning STEMga integratsiyasi) yo‘nalishlari ta’limning ilg‘or tizimlari sifatida yoshlarni ijodiy va ilmiy fikrlashga yo‘naltirmoqda. Bu metodlar nafaqat fan va texnika yo‘nalishidagi bilimlarni oshirishga qaratilgan, balki o‘quvchilarning ijodkorligi, muammolarni amaliy tarzda hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qilmoqda. Shuningdek, loyihalarga asoslangan o‘qitish uslubi ta’lim jarayoniga faol jalb qilinmoqda. Ushbu yondashuv yoshlarni jamoaviy ishslash, muammolarni tahlil qilish va ularni yechish uchun kreativ yondashuvlarni qo‘llashga o‘rgatadi. Differensial yondashuv orqali har bir o‘quvchining individual

xususiyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim berish imkoniyatlari kengaymoqda. Bunday usullar yoshlarning qobiliyatlarini to‘liq namoyon qilish va ularga zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarни egallahsha yordam bermoqda. G‘arb pedagogik tizimining bunday yondashuvlari zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashib, yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularda hayotiy va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarни rivojlantirishga qaratilgan. Bu pedagogika yoshlarning ijodkorligi va erkin tafakkuri bilan bir qatorda, ularda o‘z-o‘zini anglash va o‘z imkoniyatlarini to‘liq ishga solish kabi muhim fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, G‘arb ta’lim-tarbiyasining zamonaviy mexanizmlari global miqyosda yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, u yosh avlodning har tomonlama rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratmoqda. Sharq va G‘arb pedagogikasi o‘ziga xos tamoyillari va qadriyatlar bilan bir-biridan farq qiladi. Sharq pedagogikasida jamoaviylik, ma’naviyat, odob-axloq me’yorlari va ruhiy tarbiya markaziy o‘rinda turadi. Bu yondashuv yoshlarni jamiyatning ajralmas bir qismi sifatida tarbiyalashga, ularning ma’naviy kamolotini ta’minlashga va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgan. Sharq madaniyatiga xos bo‘lgan qadriyatlar, masalan, oila va jamiyatning ahamiyatiga urg‘u berish, insonparvarlik, hurmat va halollik kabi fazilatlar yoshlarga mustahkam axloqiy asos beradi. Buning aksiga, G‘arb pedagogikasi ko‘proq individual rivojlanish, erkin fikrlash va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuvda shaxsnинг ijodiy qobiliyatlarini va mustaqil fikrashi asosiy maqsad sifatida qaraladi. G‘arb pedagogikasining asosiy xususiyati shundaki, u yoshlarni o‘z fikrlarini erkin ifodalashga, muammolarni mustaqil hal qilishga va o‘z shaxsiy imkoniyatlarini to‘laqonli amalga oshirishga o‘rgatadi. Zamonaviy G‘arb ta’limida STEM va STEAM kabi innovatsion texnologiyalar, loyihalarga asoslangan o‘qitish usullari va differensial yondashuvlar orqali yoshlarning qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi. Shu bilan birga, Sharq va G‘arb pedagogikasida umumiy jihatlar ham mavjud bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi va uyg‘unlikka erishishni ta’minlaydi. Masalan, Sharqning ma’naviy qadriyatlarini va axloqiy tamoyillarini G‘arbning ilmiy va tanqidiy yondashuvlari bilan birlashtirish yoshlarni har tomonlama rivojlantirish uchun samarali imkoniyatlar yaratadi. Bunday uyg‘unlashuv nafaqat ta’lim-tarbiyaning sifatini oshiradi, balki yoshlarning ma’naviy barkamolligi va intellektual salohiyatini bir vaqtida rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, Sharq va G‘arb pedagogikasi o‘zaro hamkorlikda zamonaviy talablarga javob beruvchi, har tomonlama rivojlangan yoshlarni tarbiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Yoshlarni tarbiyalashda komparativistik yondashuv o‘zaro boy tajribalardan samarali foydalanish imkonini beradigan muhim yondashuv hisoblanadi. Sharq pedagogikasida oila qadriyatlarini, ma’naviy-axloqiy me’yorlar, jamoaviylik va insonparvarlik tamoyillari asosiy o‘rin tutadi. Bu tamoyillar jamiyatda yosh avlodning mas’uliyatli, odob-axloqli va ma’naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, G‘arb pedagogikasidagi ilmiy yondashuv, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va individual rivojlanishga qaratilgan usullar yoshlarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Komparativistik

yondashuvning ahamiyati shundaki, u Sharqning ma’naviy qadriyatlari bilan G‘arbning zamonaviy pedagogik yondashuvlarini uyg‘unlashtirish orqali yoshlarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, Sharqning oilaga asoslangan tarbiya tamoyillarini G‘arbning innovatsion o‘qitish usullari bilan uyg‘unlashtirish yosh avlodni nafaqat ma’naviy barkamol, balki ilmiy-texnik salohiyati yuqori bo‘lgan shaxs sifatida tarbiyalashga yordam beradi. Bu yondashuv yoshlarning jamiyatda zamonaviy talablarga moslashishi va ularga muvaffaqiyatli javob bera oladigan ijodiy, tanqidiy fikrlovchi va ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, komparativistik yondashuv ta’lim jarayonida milliy va xalqaro tajribalarni birlashtirish imkoniyatini taqdim etadi. Sharqning an’anaviy tarbiya usullari bilan G‘arbning ilg‘or texnologiyalari birgalikda qo‘llanilganda, ta’lim jarayoni yanada samarali bo‘ladi. Natijada, yoshlar zamonaviy jamiyatning turli sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Komparativistik yondashuv orqali yoshlarni tarbiyalash bugungi kunda nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham strategik ahamiyat kasb etadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytish mumkinki, Sharq va G‘arb pedagogikasi o‘ziga xos tamoyillari bilan bir-birini boyituvchi va o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llanilganda, yoshlarni tarbiyalashda samarali natijalar berishi mumkin. Sharq pedagogikasidagi ma’naviy va axloqiy qadriyatlar yosh avlodning ichki dunyosini boyitishda, ularni jamiyatga foydali va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, G‘arb pedagogikasining ilmiy yondashuv va innovatsion usullarga asoslangan tamoyillari yoshlarning tanqidiy fikrashi, ijodiy qobiliyatlari va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu ikki yondashuvni uyg‘unlashtirish, zamonaviy tarbiya jarayonini boyitish va yoshlarni har tomonlama rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Mazkur imkoniyatlarni amalga oshirish uchun bir nechta tavsiyalarni ko‘rib chiqish mumkin. Birinchidan, Sharq pedagogikasidagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni G‘arbning ilmiy va texnologik usullari bilan uyg‘unlashtirish kerak. Bu, o‘z navbatida, ta’lim va tarbiya jarayonida shaxsning ma’naviy barkamolligini ilm-fan yutuqlari bilan boyitishga yordam beradi. Ikkinchidan, milliy va xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirishga e’tibor qaratish lozim. Bu, yoshlarning ma’naviy va ilmiy jihatdan rivojlanishiga xizmat qiluvchi universal yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi. Uchinchidan, ta’lim jarayonida texnologiyalardan samarali foydalanish bilan birga, ma’naviy-axloqiy tarbiyani ham chetda qoldirmaslik lozim. Chunki texnologik bilimlar bilan birga axloqiy qadriyatlarni shakllantirish yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida rivojlantiradi. Nihoyat, komparativistik tadqiqotlarni kengaytirish va ushbu yo‘nalishda yangi pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish ta’lim tizimining yanada rivojlanishiga hissa qo‘sadi. Shunday qilib, Sharq va G‘arb pedagogikasining ijobiy jihatlarini uyg‘unlashtirish orqali yoshlarni zamonaviy talablar va ehtiyojlarga moslashuvchan, axloqiy barkamol va intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan shaxs sifatida tarbiyalash mumkin. Ushbu yondashuv nafaqat yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, balki jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun ham mustahkam poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. John Dewey, *Democracy and Education*, The Macmillan Company, 1916.
2. Jean-Jacques Rousseau, *Émile, or On Education*, Jean Néaulme, Amsterdam, 1762.
3. Confucius, *Analects* (Lun Yu), Pekin University Press, 1990.
4. Lev Vygotsky, *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*, Harvard University Press, 1978.
5. Abu Nasr al-Farobiy, *Fozil odamlar shahri*, "Sharq", Toshkent, 1993.
6. Abu Rayhon Beruniy, *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*, Toshkent: "Fan", 1975.
7. Abdulla Avloniy, *Turkiy Guliston yoxud axloq*, Toshkent: "O‘zbekiston", 1992.
8. Sharof Rashidov, *Asarlar to‘plami*, Toshkent: "Yosh Gvardiya", 1985.